

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYATI XALQ TA‘LIMI
XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

IJTIMOIIY-IQTISODIY FANLAR KAFEDRASI

**«Dolzarb mavzu» o‘quv moduli yuzasidan
barcha toifa malaka oshirish kurslari
tinglovchilari uchun**

AMALIY MASHG‘ULOT ISHLANMASI



Namangan – 2015

Pedagog xodimlarning barcha malaka toifalari uchun "Dolzarb mavzular" moduli bo'yicha tayyorlangan mazkur amaliy mashg'ulot ishlanmasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 11-dekabrda 338-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish kurslari o'quv rejalari "Ijtimoiy fanlar" bloki tarkibiga kiruvchi "Dolzarb mavzular" moduli bo'yicha o'quv-mavzu rejalari va dasturlariga muvofiq tayyorlandi.

Tuzuvchilar:

_____ B. Abdurahmonova - Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi.

_____ A. Bo'stonov - Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi.

_____ A. Husaynov - Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi.

_____ M. Usmonova - Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi.

_____ M. To'xtasinov - Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi.

_____ A. Qoriyev - Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi.

Taqrizchi:

_____ R.Boymirzayeva - Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi.

Mazkur ma'ruzalar matni Namangan VXTXQTUMOI Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasining 2014-yil 26-dekabrda 12-sonli yig'ilishida muhokama etilgan va institut Ilmiy kengashining 2014-yil 30-dekabrda 12-sonli yig'ilish qarori bilan foydalanishga tavsiya etilgan.

“Dolzarb mavzu” kursi bo‘yicha o‘quv-mavzu reja va dastur

№	Mavzular	Soatlar		
		Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulotlar	Jami
1	Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta’limining dolzarb masalalari.	-	2	2
2	O‘zbekiston iftixorlari.	-	2	2
Jami:		-	4	4

1-mavzu. Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta’limining dolzarb masalalari (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Umumbashariy, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolar. Barqaror taraqqiyot kontsepsiyasi. Tabiiy muhitga salbiy ta’sirning ortib borishi. Barqaror rivojlanish g‘oyasining maqsadi. Jamiyatning uzviy bog‘langan ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishini bir me’yorda ta’minlash masalalari. Barqaror taraqqiyot masalalarini maktab o‘quv dasturlariga integratsiyalash.

2-mavzu. O‘zbekiston iftixorlari (2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘zbekiston Respublikasi sharafini xalqaro maydonlarda himoya qilib, uning shuhratini ulug‘lab va keng yoyib kelayotgan sportchilar, fan, ta’lim va boshqa sohalarning O‘zbekiston iftixori unvoniga sazovor bo‘lgan namoyandalari, ularning yoshlarga ibrat bo‘luvchi hayot yo‘li va xizmatlari. O‘zbekiston iftixorlari timsolida ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish masalalari.

1-MAVZU. EKOLOGIYA VA BARQAROR TARAQQIYOT TA'LIMINING

DOLZARB MASALALARI. (2 soat amaliy)

Mavzuning maqsadi:

- Ekologiya tushunchasi va ekologik muammolar haqida ma'lumotlar;
- Ozon qatlami va uning kamayib borayotganligi haqida umumiy ma'lumot;
- Kislotali yog'ınlar va radiaktiv ifloslanishning salbiy oqibatlari;
- Ekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik shartnomalari;
- O'zbekistondagi ekologik muammolar va ularni bartaraf etish uchun qilingan ishlar;
- Orol fojeasi – umumbashariy global muammo;
- Mamlakatimizda ekologik muammolarni hal etish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar haqida ma'lumotlar berish;

Kutilayotgan natijalar:

- Tinglovchilarda ekologik muammolar va ularning salbiy oqibatlari haqida umumiy tushunchalar hosil qilish;
- Orol fojeasini anglab yetish va bartaraf etish uchun odamlarda ekologik madaniyatni shakllantirish;

MAVZUNING TEXNOLOGIK XARITASI

Fan: Dolzarb mavzular

Auditoriya: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'qituvchilari (tinglovchilar)

Mavzu: Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta'limining dolzarb masalalari. O'zbekiston iftixorlari

Kalit so'zlar: Ekologiya, Ekologik madaniyat, Ekologik muammolar, Global ekologik muammolar, "Orol fojeasi", Barqaror taraqqiyot ta'limi

Soatlar soni: 2 soat amaliy mashg'ulot

Ishlab chiquvchilar: A.Bo'stonov, A.Qoriyev

Ishlangan sana: 25.12.2014

Ish joyi: NVXTXQTUMOI "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" kafedrası.

Mavzuning qisqacha ta'rifi (Davlat talablariga muvofiq)

Umumbashariy, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolar. Barqaror taraqqiyot kontsepsiyasi. Tabiiy muhitga salbiy ta'sirning ortib borishi. Barqaror rivojlanish g'oyasining maqsadi. Jamiyatning uzviy bog'langan ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy

rivojlanishini bir me'yorda ta'minlash masalalari. Barqaror taraqqiyot masalalarining maktab o'quv dasturlariga integratsiyalash.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi

Metod : Ma'ruza-suhbat, "Aqliy hujum", "BBB" metodlari, guruhlarda ishlash

Forma: Umumlashtirish.

Vositalar: (Texnik va didaktik). Mavzuga oid Prezident ma'ruzalari, Konstitutsiya, ma'ruza asosida tayyorlangan slaydlar, kompyuter va proyektor, tarqatma materiallar.

Nazorat: Og'zaki, savol-javob, kuzatish, suhbat.

Baholash: Rag'batlantirish, tashakkur bildirish.

Dars (ma'ruza)ning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta'limiy: Tinglovchilarga ekologik madaniyat va muammolar, Barqaror taraqqiyot ta'limi konsepsiyasi va uni amalga tadbiiq etilishi haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy: Mavzuni o'rganish asnosida tinglovchilarda tabiatni asrab avaylash, ekologik madaniyatni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: Dunyoqarashini kengaytirish, atrofda bo'layotgan turli jarayonlarga dahldorlik hissini uyg'otish.

Vazifalar:

Rivojlantiruvchi mashq:

1. Darsning maqsadini to'g'ri qo'yish.
2. Barqaror taraqqiyot ta'limi konsepsiyasini o'rganish va tahlil etish.
3. Kutilayotgan natijani darajasini aniqlash.
4. Darsni qanday tashkil etilganligi va uni samaradorligi darajasini ko'rib chiqish.

Kutilayotgan natijalar

Dars yakunida tinglovchi biladi (Bilim):

Ekologiya, ekologik madaniyat va muammolar, Barqaror taraqqiyot ta'limi konsepsiyasini mazmun va mohiyatini anglab oladilar.

Qaysi amaliy ishlar beriladi:

Mamlakatimizda ekologiya masalasiga qayda darajada e'tibor qaratilayotganligi esda tutish amaliyoti bajariladi

<p>Dars yakunida tinglovchi tushunadi (Ko'nikma):</p> <p>Tinglovchilar ekologiya masalasi jiddiy ekanligi, Barqaror taraqqiyot ta'limi konsepsiyasi aholida ekologik madaniyatni yanada oshirish uchun yo'naltirilganligi haqida ko'nikmalarga ega bo'ladilar.</p>	<p><i>Qaysi amaliy ishlar orqali ko'nikma hosil bo'ladi:</i></p> <p>“Orol fojeasi” qanday ro'y berganligi, uni bartaraf etish uchun qanday masalalar ko'tarib chiqilganligi haqida amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.</p>
<p>Dars yakunida tinglovchi bajara oladi (Malaka): Tinglovchilar dars o'tish davomida erishgan bilim va ko'nikmalarini maktabda va oilaviy turmushlarida malakali tarzda qo'llay oladilar.</p>	<p><i>Qanday amaliy ishlar orqali malaka shakllanadi:</i> Ekologiya masalasi tahlil qilinadi.</p>

Dars jarayoni va uning bosqichlari:

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt (daqiq)
<p>1-bosqich: Tashkiliy qism</p>	<p>Tinglovchilar bilan salomlashib, ularni davomati aniqlanadi, dars o'tish tartibi tushuntiriladi.</p>	<p>Tanishuv, og'zaki, ko'rgazmali lik</p>	<p>3</p>
<p>2-bosqich: Refleksiya. Ehtiyojlarni aniqlash</p>	<p>Mavzu tegishli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilishdagi ehtiyojlar aniqlanadi.</p>	<p>Og'zaki</p>	<p>7</p>
<p>3-bosqich: Mavzu asosida dars bayoni</p>	<p>Mavzuni reja asosida yoritish:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ekologik muammolar va ularning turlari, O'rta Osiyo mintaqasidagi ekologik muammolar 2. Ekologik ta'lim va ma'daniyat, Barqaror taraqqiyot ta'limi 	<p>Matn va slaydlar bilan ishlash</p>	<p>50</p>

4-bosqich: Mustahkamlash	O'tilgan mavzu bo'yicha tinglovchilarni bilimini sinovdan o'tkazish va mustahkamlash	Faol va interfaol, og'zaki savol-javob, test	10
5-bosqich: Dars yakuni	Xulosa (tinglovchining fikr-mulohazalari, savol-javob va takliflari o'rganilib, umumlashtiriladi) qilinadi	Og'zaki, izlanish, Rag'batlantirish	5
6-bosqich: Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar	Mavzuga oid amaliy ishlarni ko'rib chiqib kichik guruhlarda muhokama qilinadi va zarur adabiyotlar tavsiya qilinadi	Nazorat uchun savol-javob	5

Ekologiya” tushunchasini fanga birinchi bo‘lib nemis biologi Ernest Gekkel 1866-yilda kiritgan.

Ekologiya – (grek. oicos – uy, logos - fan) – tirik organizmlarni yashash sirini, ularni tashqi muhit bilan muloqotini o‘rganuvchi fandır. Bu fan rivojlanishi bir asr oldin boshlangan va uning asoschilari J.S.Lomaka, A.Gumbold, Sent–Klar, A.N.Severtsev va boshqalar hisoblanadi.

XX asr davomida ishlab chiqarish xajmi 50 barobar ko‘paygan, 2030-yilga borib u yana 3,5 barobar ko‘payishi kutilmoqda. Er kurrimizning aholisi ham o‘smoqda. Hozirda 6 mlrd. odam yashamoqda. XXI asr o‘rtasiga borib planeta aholisi 10 mlrd. ga etadi, shuning uchun ham kurrimiz tabiatiga total xujumni to‘xtatish zarur.

Hozirda global ekologik muammolarga yerning ozon qatlamining yemirilishi, kislotali yog‘inlar, radiaktiv ifloslanish, suvning ifloslanish, Orol fojeasi, atrof-muhitning buzilishi kabilar kiradi.

Hozirgi davrda jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlarining tez sur‘atlar bilan o‘sishi, tabiatdan pala-partish foydalanish va o‘zlashtirish natijasida *ekologik muvozanat* buzilib, ekologik tanglik yuzaga keldi.

Ekologik tangliklar o‘z navbatida avj olib, sayyoramizning ba’zi mintaqalarida *ekologik halokatlarni* keltirib chiqaradi. Ekologik tanglikning tinmay kuchayib borishi

ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Ekologik muammolar o‘z vaqtida hal qilinmasa muayyan hududga ekologik halokat xavfini olib keladi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ta’siri bilan bog‘liq holda tabiatning ham insoniyatga aks ta’siri tushuniladi (1-jadval).

Har qanday davlatning eng katta boyligi uning aholisi, sog‘lom avlodidir. Sog‘lom avlod – sog‘lom muhitda shakllanadi. Sog‘lom muhitni esa biosferadagi barcha komponentlarning o‘z tabiiy hayot parametrlarining saqlanishisiz, ekologik xavfsizliksiz ko‘z oldimizga keltira olmaymiz. Yer yuzida yashayotgan 6 mlrd. 25 mln.dan ortiq kishining 1,1 milliard ekologik jihatdan xavfli bo‘lgan mintaqalarda yashamoqda. Respublikamizda istiqomat qilayotgan 24 mln.dan ziyod aholining yarmidan ko‘prog‘i ekologik xavfli hududlarda istiqomat qilmoqdalar.

Ekologik muammolar

<i>T/r</i>	<i>Global (umumbashariy)</i>	<i>Regional (mintaqaviy)</i>	<i>Lokal (mahalliy)</i>
1	Chuchuk suv muammosi	Orol va Orolbo‘yi muammosi	Har qanday hududda yuzaga kelgan muammolar
2	Ozon qatlamining siyraklashishi	Chuchuk suv muammosi	<u>Masalan:</u> Toshkent shahrida havo avtotransport bilan ifloslanish
3	Atmosferaning “dimiqish”i	Cho‘llanish jarayoni	
4	Pestitsidlardan foydalanish	O‘simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi	
5	O‘simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi	Pestitsidlardan foydalanish	
6	Aholi sonining ortishi	Radioaktiv ifloslanish	
7	Cho‘llanish jarayoni	Kosmonavtika	
8	Chiqindilarning ko‘payishi		

Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin taxdidlarni ko‘rib chiqar ekanmiz, ekologik xavsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e’tiborga loyiqdir. Ochiq

e`tirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski ma`muriy - buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug`ullanishmagan.

Aniqrog`i, bu muammo, ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbayi, o`z mamlakatlarning kelajagiga, tabiiy boyliklari saqlanib qolishga befarq qarashmagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa "qalb nidosi" bo`lib kelgan.

Iqtisodiyotni rivojlantirishdagi bosh maqsad ekstensiv omillarga qaratilgan edi. Tabiiyki, bunday sharoitda yashirin boyliklardan oqilona foydalanishning tartibga soladigan, tabiatning, atrof muhitning ximoya qilishni kafolatlaydigan biron-bir meoyorlar, qoidalarga rioya qilish haqida gap ham bo`lishi mumkin emas edi.

Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga arzimagan darajada kam pul mablag`i ajratilgan. Bu mablag` tabiatga yetkazilayotgan zararning mingdan bir qismini ham qoplamas edi. O`rmonlar o`ylamay-netmay, vaxshiylarcha kesib tashlanar edi. Yoqil`i va mineral xom-ashyo zaxiralari real ehtiyoj bilan taqqoslanmagan holda juda ko`p miqdorda qazib olinganidan, ko`pchilik qismi qayta ishlanmagan chiqindilar sifatida uyulib yotar edi. Tabiatni muhofaza qiluvchi eng oddiy inshootlarga ega bo`lmagan baxaybat sanoat korxonalarini faol bunyod etildi. Natijada barcha zararli va zaharli sanoat chiqindilar o`lkani havo kengligini, suv xavzalarini, yer maydonlarini ifloslantiradigan bo`ldi. O`z ko`lami jihatidan beqiyos darajada katta gidroenergetika loyihalarini ro`yobga chiqarish, transport kommunikatsiyalarini (BASH, Turksib kabi temir yo`llarni, avtomobil, neft-gaz magistrallarini va irrigatsiya tarmoqlarini) bunyod etish nafaqat tabiiy zaxiralarni qashshoqlantirdi, butun boshli aholi punktlarini yo`q bo`lib ketishiga, iqlim, odamlarning hayot va faoliyat sharoitlarining buzilishlariga ham olib keldi.

Bu muammo so`nggi yillarda yanada keskinlashdi. MDXga a`zo bo`lgan bir qancha mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga betartib suratda o`tish, tabiiy va mineral xom ashyo zaxiralaridan foydalanishda boshqaruvni barham topgani, nazorat qilinmaganligi natijasida ular tashib ketila boshladi. Vaxshiylarcha qazib olindi va arzon narxlarda eksport qilindi. Ayrim yangi "boyvachchalar" deb ataluvchi va korrupsiya nomiga ilingan butun-butun guruxlar uchun qo`shimcha foyda olish manbaiga aylandi. Shu bilan birga, ular o`zlarining ochko`z manfaatlari yo`lida hozirgi va kelgusi avlodlarning ekologik xavfsizligini salomatlik va farovonligini qurbon qilmoqdalar. Benixoya ulkan boyliklar, insoniyatning noyob yutuqlari vijdotsizlarcha o`g`irlab ketilmoqda, yo`q qilib borilmoqda. Bu bilan

butun atrof muhitga ham juda katta zarar yetmoqda, iqlim buzilmoqda. Eng yomoni esa bir necha avlod kishilarining tabiiy hayot va faoliyat sharoitlariga putur etmoqda.

Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo‘l qovushtirib o‘tirish o‘z-o‘zini o‘limga maxkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko‘plar ushbu muammoga beparvolik va masuliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lishmoqda. Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar ilmiy va mintaqaviy doiralardan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo‘ladi bu qonuniyatlarni buzish o‘nglab bo‘lmaslik ekologik falokatlarga olib keladi.

Bu xavfni ancha kech 70-yillarning boshlaridagina anglay boshladik. O‘shanda mazkur masala dunyo miqiyosidagi taraqqiyotga bag‘ishlangan dastlabki G‘arb modellarida keskin qilib quyilgan edi. Bu xol bamisoli "bomba portlaydiganday" ta‘sir etdi. Insoniyat qanday xavf qarshisida turganligini, atrof muhitga inson tufayli etkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelayotganin yaqqol xis etdi.

O‘rta Osiyolik olimlar Al Xorazmiy, A.N. Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino ular hali ekologiya fani dunyoga kelgan davrda tabiat va undagi muvozanat o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e‘zozlash haqidagi qimmatli fikrlar aytadi.

Al Xorazmiy (782-847) 845 yilda “Kitob surat al- arz” degan asarini yozadi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit‘alar, qutblar, ekvatorlar, cho‘llar, tog‘lar, daryo va dengizlar, ko‘llar , o‘rmonlar ulardagi o‘simlik va hayvonot dunyosi shuningdek boshqa tabiiy resurslar yerning asosiy boyliklari haqida ma‘lumotlar keltiradi.

Forobiy (870-910) o‘zining “Ixsoa al- ulum va al-ta‘orif” asaridagi zamonasidagi ilmlarni har tomonlama o‘rganib ularni ma‘lum tizimga solib, turkumlarga ajratdi, har bir ilm tarmog‘iga maorif berishga harakat qildi. Tabiatshunoslik ilmiga katta e‘tibor berdi.

Tabiatshunoslikka oid “Odam a‘zolarining tuzilishi”, “Hayvon a‘zolari va ularning vazifalari haqidagi kabi asarlar yozgan. Beruniy (973-1048) asarlarida o‘simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari ularning tarqalishi va xo‘jalikdagi ahamiyati haqida ma‘lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy karashlari asosan “Saydana”, “Mineralogiya”, “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida Eronning turli tropik o‘simlik va hayvonot dunyosini bayon etgan.

Ushbu asar o‘simlik va hayvonlarning tashqi muhit bilan aloqasi ularning xulq atvori yil fasllarining o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘zgarishini misollar bilan tushuntiradi. Beruniy “Saydana” asarida 1116 tur dori dormonlari tavsiflangan. Ularning 750 tasi o‘simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 minerallardan olinadi. Ibn Sino (980-1037) turli yozma manbalarda uning 450 dan ortiq asari yozganligi eslatiladi. Bizgacha uning 240 ta asari etib kelgan. “Tabiat qonunlari” shoh asari Z.M. Bobur (1483-1530) Boburnomada muallif O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston haqida ma’lumotlar yozadi.

O‘rta Osiyoni o‘rgangan olimlardan A. Sovetsov, N. Krasnov kabilarning asarlari va Kashkarov-Korovinlarning maktabini shakllantirdi. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyaning rivojlanishida ekologik yo‘nalishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1920-yillarda O‘rta Osiyo tabiatini dastlabki o‘rgangan olimlar tomonidan biotsenozlarning tuzilmalari va tizimi shuningdek biotsenoz va landshaftlarning birinchi modeli yaratildi.

1930-yillarda ekologiya-geografiya yo‘nalishiga asoslangan O‘rta Osiyo ekologiya maktabi ToshDU qoshida shakllandi. Maktab o‘lkaning nafaqat biomajmualari va biotarkibiy qismlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘lib qolmay, balki tabiiy geografiya, ayniqsa, landshaftshunoslik g‘oyalarining rivojlanishida ham katta rol o‘ynadi.

Bundan tashqari ekologiya mutaxassislar tayyorlashda, ekologiyani rivojlantirishda, shuningdek ekologiyaga oid adabiyotlarning namunalari yaratishda ushbu maktabning xizmatlari kattadir. Maktab ekologlari bergan ilg‘or g‘oyalar o‘lkani tabiati va tabiiy resurslarini aniqlash va o‘rganishda ham O‘rta Osiyoda ekologik va geografik g‘oyalarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Geografik yo‘nalishdagi yirik ekologik va geografik shular O‘rta Osiyoning tabiati biomajmualari ularning kelib chiqishi va rivojlanishi va hududiy ajralishlari rayonlashtirish landshaftlari xaritasini yaratishga qaratiladi. Shuningdek jazirama cho‘l va yuqori tog‘li cho‘llar va ularning o‘ziga xos tabiiy majmualarini o‘rganish metodlari ishlab chiqiladi.

1930-yillarda ekologik geografiya ilmiy izlanishlarning natijalari kitob holida chop etila boshladi. Bunda faqat ma’lum joyning ekologik holati haqida chop bo‘lmay, balki ekologiya fanining asoslari biokenologiya va fitokenologiya kabi sohalari ham rivojlantirildi. O‘rta Osiyo ekologlarining ayniqsa o‘lkaning ayrim landshaftlarining ekologiyasini o‘rganish tuzilmasi faolligi dinamikasi va evolyutsiyasi shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning muammolari ishlab chiqildi.

Ozon qatlami

Ozon atmosferada ultra binafsha quyosh ta'sirida paydo bo'ladi: fotokimyoviy reaksiya natijasida molekulyar O_3 bir atom. O bilan birikadi buni fotoliz jarayoni deb ataladi.

Quyosh ta'sirida 1 sekuntda 5 – 6 tonna ozon paydo bo'ladi, emirilishi esa undan ham tez o'tadi.

Butun Er sharini o'rab turgan ozon qatlami 3 mlrd. t ni tashkil etadi, nisbatan atmosferada ko'p emas. Atmosferada ozonni normal atmosfera bosimida 0°s haroratiga keltirsak, o'rtacha ozon qatlamining qalinligi 3 mm tashkil etgan bo'lardi.

Umumiy xajmi 90% 10 – 17 kmdan to 50 km balandlikda joylashgan (yil, fasl, vaqt, kengligiga qarab). Atmosferadagi bu qatlamining ozon qatlami, yoki ozonosfera deb ataladi. Ozonning ko'p konsentratsiyasi 20 - 25 km balandlikda kuzatiladi.

Atmosferadagi ozon qatlami butun tirik mavjudotlari uchun ultrabinafsha nurlaridan himoya (qalqon) rolini o'ynaydi. Ammo ko'p miqdorda ozon zaxarli ta'sir qilishi mumkin. O'simliklarda masalan: to'qimalardagi membranani emiradi va o'limiga olib keladi. Odam va xayvonlarda nafas olish yo'liga ta'sir etib, bosh og'rig'i, charchoq, ko'zlar yallig'lantiradi, o'pka va yuqori nafas olish yo'llarini infektsiyadan kasallanishiga qarshiligini kamaytiradi. Atmosferadagi ozon qatlami yupqalashib uning Er satxidagi konsentratsiyasi oshib bormoqda.

Er qatlamining yaqinida havoda ozon o'rtacha $40 - 80 \text{ mg/m}^3$ tashkil etadi. Bunday disbalans atrof muhitga chiqariladigan chiqindilarning ta'siridan, ya'ni muzlatgichlarni va aerosol uskunalarni ishlashidan mineral o'g'itlarni ishlatishdan, transport vositalarining yurishidan, ayniqsa tovushdan tez uchuvchi samolyotlarning uchishidan, vulqonlarning xarakatidan va boshqalardan kelib chiqadi.

Asosiy xavf tug'duruvchilar bo'lib ozon emiruvchi moddalar (OEM), ya'ni molekulasida xlor yoki brom tarkibli moddalar: xlorftoruglerod (XFU), bromftoruglerod (galoni), to'rtxloruglerod, metilxlorofter, metilbromil kiradi. Bu moddalar atmosferani yuqori qismiga ko'tarilib quyosh nuri ta'sirida parchalanib, xlor va brom bilan ozon reaksiyaga kirib yerning qalqonini yemiradi. Atmosferada bu moddalar 50 – 200 yilgacha turishi mumkin.

Ozon qatlamining OEM bilan emirilish kattaligini ozon emiruvchi potensial (OEP) deb ataladi. Ozonni emirilishi xususiyati darajasi qancha katta bo'lsa, OEP shuncha katta bo'ladi. 1980 yillardan boshlab ozon qatlamini qisqarishiga muhim ahamiyat berib

kelinmoqda. Shu vaqtdan boshlab ozon qatlami 1% qisqarmoqda, aniqlandiki 15 – 20% kamaysa tabiatda qaytarilmas jarayonlar sodir bo‘ladi. Birinchi bo‘lib dengiz, okean mavjudotlari uchun ozuqa xisoblangan fitoplanktonlar xalok bo‘ladi Rak kasalligi bilan kasallanish ko‘payadi.

Bu xolda mutant xujayralar paydo bo‘ladi ular tanachalarda rak shishlarini xosil qilishi mumkin.

Ozon qatlamining yaqin kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan qisqarishi Yana bir xavfni o‘zida saqlamoqda: u xam bo‘lsa Erning elektromagnit maydon chastotasi buzilishidir. Inson miyasi ma’lum elektromagnit to‘lqinlar chastotasiga moslashgan agar bu chastota odamning moslashish xususiyati chegarasidan chiqib ketsa, uning psixologik funkciyasini susaytiradi va odamlarning ommaviy kasallanishiga olib keladi. BMT tomonidan 16 sentyabr “Xalqaro ozon qatlamini himoya qilish kuni” deb e’lon qilingan.

Hozir qabul qilinayotgan asosiy chora - ozon qatlamini emiruvchi kimyoviy moddalardan foydalanishni keskin qisqartirishdir.

Kislotali yog‘inlar.

Atmosfera havosiga ishlab chiqarish va transport vositalaridan chiqariladigan gaz chiqindilar kislotali yog‘ingarchilikka olib keladi.

Kislotali yog‘inlar – yomg‘ir, tuman, qordir. Tarkibi: yuqori kislotali atmosfera namligida erigan oltingugurt 4 oksidi, azot oksidlari va boshqa kimyoviy elementlar.

“Kislotali yog‘in” 1872 yili Angliyada paydo bo‘ldi. Ilmiy izlanishlar esa XX asrda boshlanib ketdi. Bu xavfni birinchi bo‘lib Skandinaviya davlatlari o‘zida sinab ko‘rishdi, G‘arbiy Evropadagi ishlab chiqarish chiqindilaridan tashkil topgan havo massasi shamol yo‘nalishi bo‘yicha («roza vetrov») bu davlatlarda yog‘in sifatida yoqqan.

Kislotali yog‘inlarning oldini olish – bo‘yicha kurash masalasi Xalqaro jamiyat tomonidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. 1979 yil “Havoni katta masofalarda ifloslanishining Tunis chegarasi” bo‘yicha konvensiya imzolandi. Bu havoni ifloslanishi masalasi bo‘yicha birinchi xalqaro xujjat bo‘lib, uni 35 davlat imzoladi. Xozir ularning safi 40 ga etdi. Konvensiyaning xal qilinishi kerak bo‘lgan masalalaridan birinchisi, muhitni sho‘rlashuviga qarshi kurash bo‘ldi. 1984 – 1994 yilda Yana 4 ta protokol qo‘shimcha kiritildi, bular 1985 yil oltingugurt chiqindisini kamaytirish, 1988 yil azot oksidlarini, 1991 yil uchuvchi organik moddalarni va 1994 yil yanada oltingugurt chiqindilarini kamaytirish masalasi bo‘ldi.

Radioaktiv ifloslanish.

Yigirmanchi asrda atom energiyasidan foydalanish atrof muhitni ifloslantruvchi yangi radioaktiv moddalarni paydo qildi. Atom elektrostanciyalarining muxim ekologik muammolari paydo bo'ldi, atom-yadro yoqilg'ilaridan foydalanish atrof muhitga va aholiga ta'siri, radioaktiv chiqindilarni ko'mish, tinchlik maksadida atom-yadro energiyalaridan foydalanishda avariylarning sodir bo'lishi radioaktiv chiqindilarni ta'siri, muammolarini paydo qildi.

Atom energetikasi. Dunyoda har yili 15ga yaqin radioaktiv moddalarning atrof muhitga chiqib ketishi ro'yxatga olingan. Dunyodagi atom elektrostanciyalarida ko'plab har xil og'irlikdagi avariylar sodir bo'lmoqda. Shu sabablarga ko'ra dunyoning bir necha mamlakatlari, Shvetsiya, Avstriya, Italiya, Buyuk Britaniya, Meksika va boshqalar. AESga o'z munosabatlarini ko'rib chiqib ularni ishlatish va ko'rishdan voz kechdilar. AQSHda oldin qurilgan atom stantciyalar yopilmoqda. Shvetsiyada ishlayotgan AESning oxirgisi 2010 yil to'xtatiladi.

Chernobl xalokatini asosiy biologik natijalari.

1986-yili Chernobl AESda sodir bo'lgan xalokat atom energetikasidan foydalanishga qarshi yana bir turtki bo'ldi.

Ma'lumotlarga qaraganda avariya sodir bo'lgan vaqtda $1,9-5 \cdot 10^{18}$ Bk radioaktiv nuklidlar radioaktiv izotoplarni atmosfera chiqarilgan umumiy yig'indisi 77 kg deb baholandi. Ular butun shimoliy yarim sharda joylashgan davlatlarga tarqaldi, ko'p qismi AESdan 300-400 km radiusda tushgan. Chernobl AESdan 30 km radiusdagi erlarda inson faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi. Chernobl xalokati biologik ta'siri natijalari bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli turlarga bo'lingan.

Ekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlik.

Global muammolarning xususiyati shundaki, ularni xal qilish uchun dunyodagi hamjamiyatlarini birgalikda xarakat qilishiga bog'liq. Tabiat muhitini ifloslanishi va xalokatlari bir davlatning chegaraviy xududida tugallanmaydi, shuning uchun xam ularning xalokat omillarini oldini olish uchun dunyoning malakali mutaxassislari va jamoatning birgalikdagi xarakatiga bog'liq.

Shu maqsadda davlatlar o'z xarakatlarini birlashtiradi, yana o'z xuquqlarini bir qismini xalqaro birlashmada hal qilishga ruxsat berdilar, ya'ni ular nomidan umumiy

tabiatdan foydalanish bo'yicha oqilona me'yorda kiritishadi, qoida va qonunlar chegarasida faoliyat ko'rsatadilar.

Davlatlar 170 ta kelishuv qabul qildilar, ulardan 100 tasi 1972 yil BMT inson yashaydigan muhit ekologiyasi tug'risidadir.

Ulardan eng asosiylari:

1979-yil atmosferadagi ifloslanishni katta masofalarga tarqalishini oldini olish konvensiyasi. Uning ta'siri yordamida Evropada atmosferaning ifloslanishi kamaydi.

1987-yil ozon qatlamini himoya qilish konvensiyasi.

Keyingi yillar unga qo'shimcha to'g'rilashlar kiritildi. Bu esa XFUni 60% chiqindisini 1988-yilga nisbatan kamaytirilishiga olib keldi.

1987-yil ozon qatlamini emiruvchi xloridli va ftorli uglevodorodlarni atmosferaga chiqarishni kamaytirish bo'yicha Monreal protokoli, 2000 yilgi chiqindini kamaytirishni 50% ga etkazishni ko'zlaydi.

O'tgan yillar 2 marta me'yorni kamaytirish bo'yicha protokollar ko'rib chiqildi, oxirgi paytlarda rivojlangan davlatlarni 1996 yilgi XFU ishlatishni to'xtatish sharti qo'yildi. Bu takliflar AQSH, Olmoniya, Shvetsiya va boshqa davlatlar tomonidan bajarildi.

1990-yil yo'qolib borayotgan fauna va floralarni xalqaro masshtabda oldi sotdi konvensiyasi. Bu tufayli Afrikada yo'q qilinayotgan fillar soni kamaytirildi.

1991-yil Atarktidada 50 yil foydali qazilma boyliklarini qidirish va qazib olishni taqiqlash bo'yicha kelishuv imzolandi.

1992-yil Rio de Janeyroda BMTning atrof muhit va uni rivojlanishi bo'yicha konvensiya. «XXI asr kundaligi» to'g'risida xujjat qabul qilindi, yana BMT qoshida iqlim sharoitini o'zgarishi bo'yicha konvensiya qabul qilindi, cho'lga aylanishga qarshi xalqaro konvensiya va biologik xilma-xillik to'g'risida konvensiya qabul qilindi.

1994-yil yerlarni degradatsiyasiga qarshi kurash bo'yicha konvensiya. Har bir davlat o'zi kurashish bo'yicha loyixalar qabul qilishligi to'g'risida taklif kiritildi.

1994-yil xalqlarni joylashishi va rivojlanishi bo'yicha Qoxirada xalqaro konvensiya.

150 ta davlat «Butun dunyoda xalqlar joylashishi bo'yicha ish rejasi»ni tasdiqladilar, bu 2050 yilgacha er aholisini 9,8 mlrd. odamdan oshirmasdan ushlab turish. 1995-yil dengiz muhitini er ustidagi ifloslantiruvchilardan himoya qilish bo'yicha global ish rejasi. Bu narsa qirg'oqlarda va chekka joylarda 3,5 mlrd. aholini yashash sharoitini yaxshilashi

mumkin. Qarorlarni global masshtabda qabul qilinishiga keng aholi massasining foydasini ko'zlovchi, xalqaro davlat organlari va nodavlat uyushmalari, muxim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasining ekologiya – iqtisodiyot siyosatining asosiy yo'nalishlari.

Hozirgi zamonda respublikamizning ekologiya – iqtisodiyoti siyosati tabiatning ayrim elementlarini himoyalashdan, butun ekotizimni himoyalash, insonni yashash muhiti omillarini sifatini kafolatini ta'minlash. Bunday ekologik siyosat butun xalq xo'jaligini va jamiyatni turg'un rivojlanishiga omil bo'ladi.

Bunday siyosatning asosiy printcipi “O'zbekiston Respublikasida tabiatdan foydalanishni xuquqiy, iqtisodiy, ilmiy asoslangan mexanizmni tadbiq etish” 3 bosqichda olib boriladi.

1. 1996 – 2000 yil – birlamchi xalq etilishi zarur masala bu kerakli me'yoriy xuquq asosida krizis xollarini rivojlanishini to'xtatish va undan chiqishni asosiy yo'nalishlarini aniqlash.
2. 2000 – 2005 yil atrof muhit xolatini me'yoriy ko'rsatkichga keltirishni tashkil etish.
3. 2005 – 2010 yil – jamiyatning rivojlanishini va iqtisodiyotni atrof muhitni muhofazasiga va tabiatdan oqilona foydalanishga qaratish.

Respublikamizda 2005 – yilgacha atrof muhit muhofazasi va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish davlat programmasi, “Respublikada atrof muhit gigienasi yaxshilash bo'yicha milliy dastur”, “bioxilmaxillikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va dastur”. Bu xujjatlarda atrof muhit muhofazasi bo'yicha siyosatning maqsadi, tabiat resurslaridan foydalanishni birlamchi va uzoq muddatli ish dasturi va ularning asosiy yo'nalish va strategiyasi inson yashashiga yaxshi sharoit yaratishni tashkil etish ko'zda tutiladi.

Orol dengizi muammosi.

1960-2004 yillar ichida Orolning sathi 20,32 m gacha pasaygan, xajmi 968 km³ ga kamaygan, maydoni 51,3 km² ga qisqargan, sho'rlanish darajasi 9-112 g/l dan 72g/l ga etgan.

1961 yilga qadar dengizning o'rtacha sathi 53,4 metr, suv hajmi 1064 kub kilometr, yuzasi 66 ming kvadrat kilometr, qirg'oqlarining uzunligi 4430 kilometr, kengligi 292 kilometrga teng bo'lgan, minerallashuv darajasi bir litr suvda 9-11 grammni tashkil etgan.

Dengizning eng chuqur joyi 70 (69) chetlaridagi oʻrtacha chuqurligi 16,1 metrni tashkil qilgan.

Orollarning soni 1100 ta boʻlib, ularning maydoni 2234,9 kv.km.ga teng boʻlgan.

Dengiz biomahsuldor havza sifatida oʻz ahamiyatini yoʻqotdi oʻlik holga kelib qoldi.

Dengiz mintaqasidagi 174 tur hayvon soni 38 tagacha qisqardi. Orol boʻyi hududida yashaydigan mavjudotlar ahvoli tang holatga kelib qoldi.

Orol halokati - insoniyat tarihdagi ekologik halokatlardan eng yiriklaridan biridir.

Orol inqirozining epitsentrida joylashgan Qoraqolpogʻistonda tabiiy muhitning misli koʻrilmagan darajada ifloslanishi, oʻsimlik va hayvonot dunyosining deformatsiyalanishiga olib keldi.

Hozirgi kunda chorva uchun foydalanilgan 100 ming gektar yantoq 117 ming gektar buyan (solodka) egallaydigan maydonlar yoʻq boʻlib ketish arafasida turibdi.

Keyingi yillarda pichanzorlarning tarqalgan areali 600 ming gektardan 73 ming gektarga qisqardi.

1966 yildan boshlab dengizning qurigan tagida 42000 kv.km boʻlgan yangi qumshoʻr dasht vujudga keldi. Hosil boʻlgan Orolqum dashti, mavjud Qoraqum va Qizilqum bilan tutashib, Saxroi Kabir bilan musobaqalashmoqda.

Dengizning qurigan tuz manbaidan har yili toʻfonlar natijasida 750 mln. tonnagacha tuz changlari atmosferaning 15 km balandligiga koʻtarilib 200 km kenglikda harakatlanadi. (1980 yillardan boshlab bu toʻfonlar har yilda 90 martagacha sodir boʻlmokda). Xavodagi tuz miqdori 5-12 % ga etdi. Bu holat toʻqayzorlar, turli oʻsimliklar, qush va hayvon turlarining yoʻqolishiga olib keldi.

Orol fojeasining salbiy oqibatlari

Orol va Orol buyi xududlarida flora va fauna oʻzgardi. Bu halokat oqibatidir.

Insonga ish topish juda qiyin boʻlib qoldi, daromadlar kamaydi, anʼanaviy mashgʻulot sohasi boʻlgan - baliqchilik tarmogʻi barham topdi.

bu esa migratsiyaga va aholi sogʻligʻining yomonlashuviga olib keldi.

Iqlim kontinentallashtirilib, yoz faslida issiqlik +2°S ga koʻtarilgan boʻlsa, qishda harorat -2 S gacha pasaydi. Natijada, erta sovuq tushib, xosillar etilmay qolmokda.

Suvdan foydalanish va erlarni oʻzlashtirishning ilmiy jihatdan asoslanmaganligi, qishloq xoʻjaligining ekstentiv rivojlanishi kabi omillar taʼsirida ekin maydonlari shoʻrlanib, dehqonchilik vohalarida agroekologik buzilishlar yuz berdi.

90-yillar boshlarigacha 1 gektar erga oʻrtacha 700-800 kg mineral oʻgʻitlar qoʻllanilgan boʻlsa, ularning faqat 35-40 foizi, fosfatlarning esa 15-20 foizi oʻsimliklar tomonidan oʻzlashtirilgan, qolgan qismlari qiyin oʻzlashtiriluvchi shaklga oʻttan yoki er osti va er usti suvlariga borib qoʻshilgan.

Quyida Amudaryo xududidagi shoʻrlanish va choʻllanish 500 ming gektar ekin maydonining yoʻqotilishiga olib keldi. Choʻllanish Qoraqalpogʻistonni arzon goʻsht yetishtirish imkoniyatidan mahrum etdi.

Yerlarning kuchli darajada shoʻrlanishi madaniy yodgorliklar, uy-joy, maʼmuriy binolar va yoʻllarga tuzatib boʻlmas darajada zarar keltirdi.

Atmosferaga koʻtarilayotgan tuz hatto yuqori voltli elektr uzatkich tarmoqlariga oʻrnashib, ularning konstruktsiya va izolyatsiyasining buzilishiga sabab boʻldi;

Aholi, pestitsid, gerbitsid va boshqa zaxarlarni oʻziga singdirgan okova suvlarni ichishga majbur boʻlmokda.

Orol muammosini kelib chiqish sabablari

I. Insoniyat faoliyati natijasida sugʻoriladigan yer maydonlari kengayib bordi. Ana shu oʻzlashtirilgan yerlarda ekilgan paxta maydonini sugʻorish uchun Amudaryo va Sirdaryoning suvi koʻp miqdorda sarflandi.

II. Amudaryo yillik suv oqimining bir qismi (15-17 mlrd. m) Qoraqum kanali va suv omborlarini toʻldirish uchun ishlatildi.

Kerki kuzatish stantsiyasidan Shodlik stantsiyasigacha 815 km masofada Amudaryodan 20 dan ortiq kanallar suv oldi. Natijada daryodan suv oladigan sugʻorish tizimlarining uzunligi 104 ming km.dan ortib ketdi. Shu tufayli filʼtratsiya hajmi kuchaydi.

1971-1989-yillar davomida bir necha bor uzoq muddatli qurgʻoqchilik yuzaga kelib Orol dengizi gidrologik rejimining oʻzgarishiga jiddiy taʼsir koʻrsatdi.

III. Amudaryoning yuqori va oʻrta oqimida koʻp miqdordagi suvdan dehqonchilikda foydalanish oqibatida katta hajmdagi ekin maydonlar shoʻrhokka aylanib koʻp miqdorda mineralizatsiyalashgan yer osti suvlari yuzaga keldi. Bu holat esa Orol mintaqasidagi ekologik xavfni kuchayishiga sabab boʻldi. Ana shularning natijasida Orol dengiziga quyilayotgan suv miqdori keskin kamaydi.

Suv sarfi ayrim tumanlarda kishi boshiga 5 litrdan oshmaydi (meʼyoriy oʻlcham - 200-250 litr).

Orol mintaqasida yashaydigan aholining suvga boʻlgan ehtiyoji oshib bormoqda, toza suv miqdori esa aksincha kun sayin kamaymoqda.

Qanday qilib aholining suvga boʻlgan talabini qondirish mumkin?

Aholi ehtiyojini qondirish uchun 2000 yili 140 km³ suv zarur boʻlgan boʻlsa, 2010 yilga kelib bu koʻrsatkich 170 km³ ni tashkil qiladi.

Orol fojiasining oldini olish boʻyicha amalga oshiriladigan tadbirlar

Shimoliy hududlarda suvni kam talab qiladigan bugʻdoy, arpa, tariq va kungaboqar ekin maydonlarini koʻpaytirish zarur.

Ekin maydonlari tarkibiga oʻzgartirishlar kiritib, bogʻdorchilik uzumchilik meva, sabzavot, poliz yetishtirish va qoramol chorvachiligi uchun zarur boʻlgan ekin maydonlarini koʻpaytirish lozim.

Qishloq xoʻjaligini ilmiy asosda tashkil etish (almashlab ekishni joriy qilish, tuproq unumdorligini oshirish, mineral oʻgʻitlar va kimyoviy preparatlardan oqilona foydalanish, biohilma-hillikni tiklash)ga alohida eʼtibor qaratish kerak.

Barcha aholining, ayniqsa, xoʻjalik rahbarlarining ekologik madaniyatini shakllantirishni taʼminlash;

Orol muammosi bilan umumjahon aholisi qiziqadi. Shu sababdan koʻpgina davlat arboblari, olimlar, iqtisodchilar Orolni toʻldirish borasida bir qancha takliflarni taqdim etganlar:

I. Kaspiy dengizidan Orolga kanal qazib suv olib kelish. Kaspiy sathi Orol sathidan 81 m pastga joylashgan. Undan suv olish uchun bir nechta kuchli nasos stantsiyalarini qurish kerak boʻladi;

Kanal trassasi asosan qumlik va shoʻrxok erlardan oʻtganligi tufayli suvning katta qismi erga singib ketadi; Natijada suvning shoʻrlanish darajasi ortadi. Bundan tashqari Kaspiy dengiziga tushadigan suvning oʻzi ham miqdor jihatdan barqaror emas.

II. Sibir daryolaridan suv olib kelish. Uzoq masofadan olib kelinadigan suv oxir oqibatda okova boʻlib, qimmatga tushadi.

«Suv boshida yashaydigan asal ichadi, suv ohirida yashaydigan zahar ichadi» makolini unutmaslik kerak.

III. Tyanshan, Pomir togʻlaridagi muzliklarni eritish kerak Bu togʻlarda 1750 kub km hajmda muzliklar mavjud. Bu erdagi suv Orolning 1961

yildagi suv hajmidan 1,5 baravar ko'p; Biroq muzliklar xalq boyligi, tabiiy zahira, ikkala daryoni suv bilan ta'minlab turadigan noyob manba.

Muzliklar uzoq davom etgan geologik davr mobaynida hosil bo'lgan, ularni eritish oson. Ammo kaytadan hosil kilish uchun ko'p yillar kerak bo'ladi.

Muzliklarni intensiv eritish tog'lardagi ekologik muvozanatga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

- Orol dengizi havzasida mavjud bo'lgan 127 kub km suvning 90 % i sug'orish uchun sarflanadi;

- O'zbekistonda mavjud bo'lgan kanallarning foydali koeffitsienti 0,64 ga teng, agar bu koeffitsient 0,77-0,80 ga etkazilsa, katta miqdorda suvni tejash mumkin.

Suvning asosiy qismi kanal tarmoqlarida shimiladi. Bu shimilishlar yo'qotilsa, 10-11 kub km suv tejaladi;

- egat oralab sug'orishda suvning 30 foizi erga shimiladi.

Yerga shimilib ketayotgan suvning miqdori 8-10 ming kub. m. ga kamaytirilsa, zovur suvlarining miqdori ham qisqaradi. Orol fojeasini hal etishning asosiy yo'llaridan biri aholi orasida uzluksiz ekologik ta'limni yo'lga qo'yishdir.

Aholining barcha qatlamlarida suvdan foydalanish madaniyatini shakllantirish zarur. Ko'pgina ekologik muammolarni kelib chikishining asosiy sababi korxonalar rahbarlari, fermer xo'jalik rahbarlari, ota-ona, o'qituvchi va talabalarda suvdan foydalanish madaniyatining pastligidir.

O'quvchilarda suvga bo'lgan madaniyatni shakllantirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Xususan «Umumta'lim maktablarida fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya, tarix iktisod, huquq)ni o'qitishda o'quvchilarda suvga oid tushunchalarni shakllantirish» maqsadida o'qituvchilar, o'quvchilar uchun qo'llanmalari yaratildi.

Respublikamizning barcha viloyatlarida o'qituvchilar tayyorlandi.

O'quvchilarning ekologik madaniyati oshirilsa suvni tejash muammosini hal etish mumkin.

2000 yil Prezidentimiz I.A.Karimov BMTda bo'lib o'tgan ming yillik sammitining 55-sessiyasida Orol muammosini yana ilgari surdi va bunda Orolning muammoga aylanganligi e'tirof etildi. Aslida Orol dengizi muammosi uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Lekin bu muammo so‘ngi 10 yilliklarda xavfli darajada ortdi. O‘rta Osiyoning butun hududi bo‘ylab sug‘orish tizimlarini jadal sur‘atda qurish ko‘plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko‘lamdagi fojea – Orol halok bo‘lishi anglandi.

1991-1992 yillarda Orol dengizining sathi eng yuqori nuqtada bo‘lib, 53,4 metrni, suvning hajmi 1064 km³ni, suvning yuzasi 66 ming km² va mineral almashinuv darajasi bir kub metr suvda 10-11 g tashkil etdi. Dengiz transporti, baliq xo‘jaligi, iqlim sharoiti jihatidan katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Unga Sirdaryo va Amudaryodan har yili deyarli 56 km³ suv kelib quyilar edi. 1994 yilga kelib, Orol dengizidagi suvning sathi 32,5 m, suv hajmi 400 km³dan kamroq, suv yuzasi maydoni esa 32,5 ming km² tashkil qildi, suvning minerallasuvi ikki barobar ortdi.

1997 yil fevralda O‘rta Osiyodagi 5 davlat raxbarlarining BMT, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida Almatida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Orol muammosini hal etish bo‘yicha tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Orolni qutqarish xalqaro fondining ancha ishchan tarkibi va uning negizida harakatchan Ijroiya qo‘mitasi tuzildi. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan holda jahon jamoatchiligini e‘tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish lozim.

Yer sayyorasi havosining o‘rtacha harorati ortib borishi asosiy sababi atmosferadagi uglerod yig‘indisining ko‘payib borishi hisoblanadi. Mamlakatimizda Prezidenti I.A.Karimovning qaysi asarida mintaqamizdagi ekologik muammolarning asl sabablari va oqibatlari O‘zbekiston XXI bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari tushuntirib berilgan. Ekologik madaniyat tabiat haqidagi bilimlar va tasavvurlar, Ekologik ta‘lim-tarbiya, tabiiy-iqtisodiy omillar asosida shakllanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida” qonuni 2013-yil qabul qilingan? Ekologik madaniyat davlatning siyosiy-huquqiy vositalari orqali, ekologik an‘ana va qadriyatlar, ekologik targ‘ibot omillar asosida shakllanadi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Ekologiya harakatiga 15 ta deputatlik o‘rni ajratilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BARQAROR TARAQQIYOT MAQSADLARI UCHUN TA'LIM KONTSEPTSIYASI

Birlashgan Milatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 59-sessiyasida 2005-2014 yillar uchun Barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta'lim(BTT) ta'limni amalga oshirish bo'yicha xalqaro sxema tasdiqlangan edi.

Barqaror taraqqiyot ta'limi (BTT) fanlararo yondashuvi asosida ta'lim olish, tarbiya, o'z-o'zini rivojlantirish va namoyon etish, mustaqil va tanqidiy fikrlash, ma'nan shakllangan, ijtimoiy faol, o'z hatti-harakatlarida ahloqiy va ekologik me'yorlarga asoslanadigan, o'zbek xalqi qadriyatlariga mos bo'lgan, ekologik bilimga chanqoq, atrof-muhit holati haqida qayg'uradigan va yangi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni oldindan ko'ra olish xususiyatlarini shakllantirishga da'vat etadi.

BTT jamiyatning barcha a'zolarini mintaqaviy va global muammolarni hal qilish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Agar ekologik ta'lim ko'proq ekologik mavzularga e'tibor qaratsa, BTT siyosat, iqtisodiyot, jamiyat va atrof muhit o'rtasidagi o'zaro aloqadorligi masalalariga alohida yondashadi.

Barqaror taraqqiyot ta'limining muhimligini inobatga olgan holda Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi va Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi 2005 yil 7 noyabrda № - 242/33/79 sonli qo'shma qarorini qabul qilgan. Mazkur qarorda ekologik ta'lim va BTT sohasidagi uzluksiz ekologik ta'lim Kontseptsiyasi, uni amalga oshirishning dasturi va idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash (IMK) tarkibini tasdiqlab berdi.

O'zbekiston Respublikasining BTT bo'yicha kontseptsiyasi BMTning BTT bo'yicha qabul qilgan o'n yilligi va Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 19 sentyabr №-212 sonli qarorida tasdiqlangan "2008-2012 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish harakat dasturi"ni amalga oshirish doirasida ishlab chiqilgan.

Ta'lim, mamlakatni barqaror taraqqiyotga o'tishi uchun fuqarolarda ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol qatnashishida zarur bo'ladigan bilimlar, qarashlar va ko'nikmalarning shakllanishini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

BTTning asosiy g'oyalari qo'yidagi strategik va dasturiy hujjatlarda o'z aksini topgan:

- "Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish muammolari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro hamjamiyatning Nukus deklaratsiyasi" (5 sentyabr 1995 yil);

- «Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori saviyali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2011 yil 20 may);
- O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining “Mingyillik rivojlanish maqsadlari” bo’yicha oliy darajadagi yalpi majlisidagi ma’ruzasi (2010 yil 20 sentyabr);
- O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi” (2010 yil 12 noyabr);
- YUNESKOning «Ta’lim barcha uchun» loyihasi doirasida 2003-2015 yillar uchun qabul qilingan Milliy harakat dasturi;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish bo’yicha 2008-2012 yillarga mo’ljallangan Milliy harakat dasturi.

BTT asosiy maqsadi - barqaror taraqqiyotning g’oyalari va tamoyillarini ta’limning barcha shakllari va bosqichlari bilan integratsiyalash va mustaqil dunyoqarashga ega, tanqidiy fikrlay oladigan, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik yo’naltirilgan va faol fuqarolik munosabatini bildira oladigan shaxslarnitayyorlash hisoblanadi.

BTT hal qiluvchi ahamiyatga ega g’oyalari hozirgi zamon va kelajakdagi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni, shu jumladan Orol inqirozi muammolarini yechish va oldindan ko’ra olishga yo’naltirilgan bilim, ko’nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish hisoblanadi.

BTTNING ASOSIY TAMOYILLARI

Jamiyatning qadriyaviy yo’nalishlari – adolat, kelajak avlodlar oldidagi javobgarlik etikasi(kelgusi avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda);

Fanlararo yondashuv – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik maqsadlarning o’zaro bog’liqligi;

Tarmoqlararo yondashuv asosidagi hamkorlik – jamiyatni barcha a’zolarining demokratik qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishi (davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati, o’quv va ilmiy-tekshirish muassasalari, xususiy tadbirkorlar va boshqalar);

Hayot davomiyligidagi ta’lim – ta’lim tizimining barcha shakllari va darajalari

BTTning strategik vazifalari

O'quv muassasalari boshqaruvini nomarkazlashtirish;

Ta'lim jarayonida huquqiy (shu jumladan ekologik-huquqiy) madaniyatni rivojlantirish;

Ta'lim tizimida axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish;

O'quv muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlikni shakllantirish va rivojlantirish;

Raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash maqsadida turli ta'lim shakllarini qo'llab-quvvatlash.

Faoliyatning bosh yo'nalishlari:

- BTTning strategik vazifalarini ta'lim, atrof-muhit muhofazasi va ijtimoiy-iqtisodiyot sohasidagi qonunchilikka joriy qilish;
- Davlat dasturlarida BTTning strategik vazifalarini hisobga olish;
- Ta'limning barcha bosqichlari sifatini yaxshilash, buning uchun;
 1. ta'lim olishning shakllarini va ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish;
 2. ilmiy-pedagogik kadrlarning kasbiy bilimlarini va o'quv muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik saviyasini yuksaltirish;
 3. ta'lim berishning interfaol usullariga, shu jumladan axborot kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
 4. yangi, shu jumladan nanotexnologiyalarni rivojlantirish sohasida ilmiy faoliyat va BTTni rag'batlantirish.

Kontseptsiyani amalga oshirish

BTT bo'yicha kontseptsiya ta'limning formal (davlat ta'lim standartlariga asoslangan) va noformal (maktabdan tashqari, fakultativ va qo'shimcha ta'lim shakllari) tizimida, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi doirasida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining BTT bo'yicha harakat dasturlari asosida mustaqil o'quv fanlariga integratsiyalashtirilgan holda tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim.

BARQAROR TARAQQIYOT MAQSADLARI

UCHUN TA'LIM BO'YICHA IDORALARARO

MUVOFIQLASHTIRUVCHI KENGASH TO'G'RISIDA NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1.1. Barqaror taraqqiyot ta'limi bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash (BTT IMK) manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari, idora va tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasida BTT bilan bog'liq harakatlarni muvofiqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qoshida tashkil etilgan.

1.2. BTT IMK Oliy Majlis vakillari, tegishli vazirliklar, idoralarning rahbarlari va xodimlari, respublikaning oliy ta'lim, ilmiy muassasalar yetakchi mutaxassislari va olimlaridan tarkib topgan jamoatchilik hay'at organi hisoblanadi.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi lavozimi bo'yicha BTT IMK raisi hisoblanadi.

1.4. BTT IMK ning birinchi yig'ilishida BTT IMK raisining taqdimoti bilan rais o'rinbosari va mas'ul kotib tasdiqlanadi.

1.5. BTT IMK o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Nizomga amal qiladi.

1.6. BTT IMK qarorlari kelishilgan holda qabul qilinib, majburiy hamda tavsiyaviy xarakter kasb etib, bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

1.7. BTT IMK to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Xalq ta'limi vazirliklarining Qo'shma Qaror bilan tasdiqlanadi.

II. BTT IMKning vazifalari va funksiyalari

2.1. O'zbekistonda BTT ning asosiy yo'nalishlarini kelishilgan holda muhokama qilish va ishlab chiqish.

2.2. BTT sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishni uslubiy va tashkiliy ta'minlash.

2.3. O'zbekiston Respublikasida Barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta'lim Kontsepsiyasini amalga oshirish, BTT tamoyillari va asosiy qoidalarini ta'lim dasturlari va standartlariga joriy etish.

2.4. BTT bo'yicha, ta'lim sohasida me'yoriy bazani takomillashtirish, kadrlar malakasini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha vazirliklar, idoralar, tashkilotlar, ta'lim muassasalariga taqdim etish uchun takliflarni ishlab chiqish.

2.5. Zarur holatlarda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga BTT ning dolzarb masalalari bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish, tayyorlash va taqdim etish.

2.6. O'zbekiston Respublikasida Barqaror taraqqiyot ta'limi Kontsepsiyasini va BTT bo'yicha tegishli rejalar va dasturlarni amalga oshirish yuzasidan monitoringni tarkibida ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirliklar, idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish yo'li bilan olib borish.

2.7. BTT ni takomillashtirishga yo'naltirilgan vazirliklar, idoralar, ilmiy markazlar, institutlar, oliy ta'lim muassasalari kafedralarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish.

2.8. BTT bo'yicha xalqaro (kelishuvlarga muvofiq), respublika miqyosida anjumanlar, seminarlar va yig'ilishlarni tashkil etish.

2.9. BTT bo'yicha belgilangan tadbirlarni bajarish bo'yicha erishilgan yutuqlar to'g'risida aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini tizimli tashkil qilish.

2.10. O'zbekistonda BTT bo'yicha vazifalarni amalga oshirish uchun vositalarni, xususan, xalqaro tashkilotlarni, donor-mamlakatlarni jalb etish.

2.11. BTT bo'yicha boshqa muhim masalalarni ko'rib chiqish, tegishli qaror va tavsiyalar qabul qilish.

III. BTT IMKning huquq va majburiyatlari

3.1. Vazirliklar, idoralar, ta'lim muassasalari rahbarlari kelishuvi bilan BTT IMK ga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladigan masalalarni tayyorlash uchun malakali mutaxassislarni jalb etish.

Vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari rahbarlarining BTT bo'yicha tadbirlarning bajarilish holati to'g'risidagi hisobotlarini tinglash va tegishli qarorlarni qabul qilish.

3.2. Manfaatdor vazirliklar, idoralar, ilmiy markazlar, ilmiy-tadqiqot institutlari kelishuvi bilan BTT bo'yicha alohida masalalarni o'rganishni chuqurlashtirish uchun doimiy yoki vaqtincha faoliyat yurituvchi mutaxassislarning ishchi yoki ekspertlar guruhini tashkil etish, ular tomonidan tayyorlangan hujjatlar, qarorlar loyihalarini tasdiqlash.

3.3. O'z yig'ilishlarida vazirliklar, idoralar, ilmiy markazlar, ta'lim muassasalari vakillarining ma'lumotlarini tinglash, shuningdek, BTT masalalari bilan bog'liq ma'lumotlarni so'rash va qabul qilish.

3.4. Vazirliklar, idoralar, ilmiy markazlar, ta'lim muassasalariga BTT IMK qarorlarining bajarilishi hamda BTT masalalari bo'yicha me'yoriy aktlarning holatini o'rganish uchun BTT IMK vakillarini yuborish.

3.5. BTT IMK vakolatlariga kiruvchi masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.

3.6. BTT sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni ta'minlash.

3.7. BTT IMK faoliyatini amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida amalga oshirish.

3.8. BTT bo'yicha tadbirlarni me'yoriy-huquqiy aktlarda va muvofiq ish rejalarida belgilgan muddatlarda bajarish.

IV. BTT IMK ishlarini tashkil etish

4.1. BTT IMK o'z faoliyatini tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq amalga oshiradi.

4.2. BTT IMK yig'ilishlarini bir yilda ikki martadan kam bo'lmagan holatda o'tkazadi. BTT IMK yig'ilishlarida uning a'zolari sonidan yarmidan kam bo'lmagan soni ishtirok etsa yig'ilish xuquqli deb hisoblanadi.

4.3. BTT IMK qarorlarni ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qiladi. Qaror BTT IMK yig'ilishda ishtirok etgan a'zolarining yarmidan ko'pi ovoz bersa qabul qilingan hisoblanadi.

4.4. Yig'ilishda qabul qilinadigan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi va BTT IMK raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

4.5. BTT IMK yig'ilishida rais yoki kotib ishtirok eta olmagan holatlarda ularning majburiyatlarini rais o'rinbosari va BTT IMK a'zolaridan biri ado etadi.

4.6. BTT IMK yig'ilishida boshqa vazirlik va idoralar manfaatiga taalluqli masalalar muhokama etiladigan bo'lsa, yig'ilishga ularning vakillari taklif etiladi.

4.7. BTT IMK yig'ilishida ko'rib chiqilishi uchun savollarni tayyorlash va yig'ilishlar orasida bo'lgan davrdagi faoliyat IMK a'zolari tomonidan, mazkur nizomning 3.2. bandiga muvofiq tashkil etilgan komissiya va guruhlar tomonidan ishchi guruhini jalb etgan xolda amalga oshiriladi.

V. BTT IMK raisi vakolatlari

VI. BTT IMK a'zolari vakolatlari

VII. BTT IMK mas'ul kotibi vakolatlari

VIII. Yakunlovchi qoidalar

BTT IMK to'g'risidagi Nizom ko'pchilik a'zolarining yoki BTT IMK raisi tashabbusi bo'yicha to'ldirilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

BTT IMK mazkur Nizomni tasdiqlagan davlat organlari rahbarlarining qarori bilan tugatilishi mumkin.

O'zbekistonda "Ekosan" xalqaro ekologiya va salomatlik jamg'armasi 1991 yil tashkil etildi. Jamg'arma 14 ta mintaqaviy va 200 ta tuman(shahar) bo'limlariga ega. Jamg'armaning korxonalar, tashkilot, o'quv muassasalarida 2 mln. 500 mingdan ortiq faollari mavjud.

1992 yil 9 dekabrda O'zbekiston Respublikasida ekologiyaga oid "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" qonun qabul qilingan. Prezident I.Karimov tomonidan olg'a surilayotgan tinchlik va ekologik siyosatda insonparvarlik g'oyasi ilgari surilgan.

MAVZUGA OID TESTLAR

1. Yer sayyorasi havosining o'rtacha harorati ortib borishi asosiy sababini toping?

- *A) Atmosferadagi uglerod yig'indisining ko'payib borishi
- B) Tabiiy o'rmonlarning kamayib borishi
- C) Ozon qatlamining yemirilishi
- D) Urbanizatsiya jarayoni va transport vositalarining ko'payishi

2. Mamlakatimizda Prezidenti I.A.Karimovning qaysi asarida mintaqamizdagi ekologik muammolarning asl sabablari va oqibatlarini batafsil tushuntirib berilgan?

- A) O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlash yo'lida
- *B) O'zbekiston XXI bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari
- C) Bizdan ozod va obod Vatan qolsin
- D) O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida

3. Ekologik madaniyat qanday omillar asosida shakllanadi?

- A) Tabiat haqidagi bilimlar va tasavvurlar
- B) Ekologik ta'lim-tarbiya
- C) Tabiiy-iqtisodiy omillar asosida
- *D) A va B javoblar to'g'ri

4. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida" qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1999-yil
- B) 2010-yil
- *C) 2013-yil
- D) 2008-yil

5. Ekologik madaniyat qanday omillar asosida shakllanadi?

- A) Davlatning siyosiy-huquqiy vositalari orqali

B) Ekologik an'ana va qadriyatlar

C) Ekologik targ'ibot

*D) B va C javoblar to'g'ri

6. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Ekologiya harakatiga nechta deputatlik o'rni ajratilgan?

A) 10 ta

B) 15 ta

C) 16 ta

D) 20 ta

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining "Mingyillik rivojlanish maqsadlari" bo'yicha oliy darajadagi yalpi majlisida o'z ma'ruzasi bilan ishtirok etadi. Ushbu Assambleya bo'lib o'tgan sanani toping?

*A) 2010 yil 20 sentabr

B) 2005 yil 16 sentabr

C) 2008 yil 28 avgust

D) 2011 yil 6 sentabr

8. Orol fojiasining oldini olish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar qaysi javobda berilgan?

A) almashlab ekishni joriy qilish, tuproq unumdorligini oshirish, mineral o'g'itlar va kimyoviy preparatlardan oqilona foydalanish, biohilma-hillikni tiklash.

B) xo'jalik rahbarlarining ekologik madaniyatini shakllantirishni ta'minlash.

C) Shimoliy hududlarda suvni kam talab qiladigan bug'doy, arpa, tariq va kungaboqar ekin maydonlarini ko'paytirish zarur.

*D) Barcha javoblar to'g'ri

9. Orol muammosini kelib chiqish sabablari qaysi javobda berilgan.

A) Insoniyat faoliyati natijasida sug'oriladigan yer maydonlari kengayib bordi. Ana shu o'zlashtirilgan yerlarda ekilgan paxta maydonini sug'orish uchun Amudaryo va Sirdaryoning suvi ko'p miqdorda sarflandi.

B) Amudaryoning yuqori va o'rta oqimida ko'p miqdordagi suvdan dehqonchilikda foydalanish oqibatida katta hajmdagi ekin maydonlar sho'rhokka aylanib ko'p miqdorda mineralizatsiyalashgan yer osti suvlari yuzaga keldi.

C) Amudaryo yillik suv oqimining bir qismi (15-17 mlrd. m) Qoraqum kanali va suv omborlarini to'ldirish uchun ishlatildi.

*D) Barcha javoblar to'g'ri

10. BTT bu - ...


A) "Buyuk tashkilotlar tizimi"

B) "Birlashgan ta'lim taraqqiyoti"

*C) "Barqaror taraqqiyot ta'limi"

D) "Birlashgan ta'lim tashkiloti"

MAVZUGA DOIR KO'RGAZMALARDAN NAMUNALAR



**OROL FOJIASINING OLDINI OLISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILADIGAN
TADBIRLAR QUYIDAGI EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETADI**

Suv tozalanadi va ko'payadi;

Suv iqtisod qilinadi;

Havo toza bo'ladi;

Sifatli oziq-ovqat miqdori ko'payadi;

Aholining salomatligi yaxshilanadi.

Tabiat bilan texnika orasidagi munosabatni yaxshilash;

Tabiatdagi ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy zahiralardan unumli foydalanish;

Chiqindisiz ishlab chiqish texnologiyasini yo'lga qo'yish;

Ishlab chiqarishning yopiq tizimiga o'tish.

Ekologik tanglikni bartaraf etish maqsadida xalkaro tashkilotlar, nodavlat tashkilot muassasalari, jamg'armalarining hayriya va muruvvat yordamlaridan foydalanish zarur.

Orol bo'yi hududidagi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun uz ichki imkoniyatlarimizdan foydalanishimiz lozim.

2-MAVZU: O‘ZBEKISTON IFTIXORLARI (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Mavzuning maqsadi:

O‘zbekiston Respublikasi sharafini xalqaro maydonlarda himoya qilib, uning shuhratini ulug‘lab va keng yoyib kelayotgan sportchilar, fan, ta‘lim va boshqa sohalarning O‘zbekiston iftixori unvoniga sazovor bo‘lgan namoyandalari, ularning yoshlarga ibrat bo‘luvchi hayot yo‘li va xizmatlari. O‘zbekiston iftixorlari timsolida ta‘lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish masalalari.

Kutilayotgan natijalar:

Mamlakatimizda sportga berilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rliklar hamda jahon va olimpiada musobaqalari sovrindorlari haqida bilimlarini yanada boyitadilar. Shuningdek, yurtimiz nomini dunyo xalqlariga tanitayotgan Vatandoshlarimiz va “O‘zbekiston iftixori” unvoni sohiblari haqida tinglovchilarda ko‘nikmalar hosil bo‘ladi.

MAVZUNING TEXNOLOGIK XARITASI

Fan: Dolzarb mavzular

Auditoriya: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining o‘qituvchilari (tinglovchilar)

Mavzu: O‘zbekiston iftixorlari

Kalit so‘zlar: Sport, “O‘zbekiston iftihori”

Soatlar soni: 2 soat amaliy mashg‘ulot

Ishlab chiquvchilar: A.Bo‘stonov, A.Qoriyev

Ishlangan sana: 25.12.2014

Ish joyi: NVXTXQTMOI “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” kafedrası.

Mavzuning qisqacha ta‘rifi (Davlat talablariga muvofiq)

O‘zbekiston Respublikasi sharafini xalqaro maydonlarda himoya qilib, uning shuhratini ulug‘lab va keng yoyib kelayotgan sportchilar, fan, ta‘lim va boshqa sohalarning O‘zbekiston iftixori unvoniga sazovor bo‘lgan namoyondalari, ularning yoshlarga ibrat bo‘luvchi hayot yo‘li va xizmatlari. O‘zbekiston iftihorlari timsolida ta‘lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish va takomillashtirish masalalari.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi

Metod: Aralash, ma'ruza-suhbat, "Aqliy hujum", "BBB" metodlari, guruhlarda ishlash

Forma: Umumlashtirish.

Vositalar: (Texnik va didaktik). Mavzuga oid Prezident ma'ruzalari, Konstitutsiya, ma'ruza asosida tayyorlangan slaydlar, kompyuter va proyektor, tarqatma materiallar.

Nazorat: Og'zaki, savol-javob, kuzatish, suhbat.

Baholash: Rag'batlantirish, tashakkur bildirish.

Dars (ma'ruza)ning maqsad va vazifalari

Maqsadlar:

Ta'limiy: Tinglovchilarga O'zbekiston
iftihorlari haqida ma'lumot berish.

Tarbiyaviy: Mavzuni o'rganish asnosida
tinglovchilarda sport va ta'lim sohasida
yutuqlarga erishgan iftihorlarimizdan
g'ururlanish hissini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: Dunyoqarashini
kengaytirish, atrofda bo'layotgan turli
jarayonlarga dahldorlik hissini uyg'otish,
yurtdoshlaridan faxrlanish va ularga
ergashishga undash.

Vazifalar:

Rivojlantiruvchi mashq:

1. Darsning maqsadini to'g'ri
qo'yish.
2. O'zbekiston iftihorlari mavzuning
o'rganish va tahlil etish.
3. Kutilayotgan natijani darajasini
aniqlash.
4. Darsni qanday tashkil etilganligi
va uni samaradorligi darajasini
ko'rib chiqish.

Kutilayotgan natijalar

Dars yakunida tinglovchi biladi (Bilim):

Mamlakatimizda ta'sis etilgan unvonlar, sport
sohasiga berilayotgan e'tibor hamda
"O'zbekiston iftihori" unvoni sohiblari haqida

Qaysi amaliy ishlar beriladi:

Mamlakatimiz sportchilarini jahon
miqyosida erishayotgan yutuqlarini esda
tutish va ular haqida ma'lumotlar
to'plash

<p>Dars yakunida tinglovchi tushunadi (Ko'nikma):</p> <p>Tinglovchilar hech narsa mamlakatni sport kabi dunyoga tez tanita olmasligini tushunib oladilar</p>	<p><i>Qaysi amaliy ishlar orqali ko'nikma hosil bo'ladi:</i></p> <p>Sport va ta'lim-tarbiya barkamol avlodni shakllantirishda asosiy vosita ekanligi haqida amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.</p>
<p>Dars yakunida tinglovchi bajara oladi (Malaka): Tinglovchilar dars o'tish davomida erishgan bilim va ko'nikmalarini maktabda va oilaviy turmushda sport sohasiga katta e'tibor berish kerakligini tushunib oladilar.</p>	<p><i>Qanday amaliy ishlar orqali malaka shakllanadi:</i> O'zbekiston iftihori fahriy unvoniga kim loyiq ekanligi tahlil qilinadi.</p>

Dars jarayoni va uning bosqichlari:

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt (daqiq)
<p>1-bosqich: Tashkiliy qism</p>	<p>Tinglovchilar bilan salomlashib, ularni davomati aniqlanadi, dars o'tish tartibi tushuntiriladi.</p>	<p>Tanishuv, og'zaki, ko'rgazmalilik</p>	<p align="center">2</p>
<p>2-bosqich: Refleksiya. Ehtiyojlarni aniqlash</p>	<p>Mavzu tegishli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilishdagi ehtiyojlari aniqlanadi.</p>	<p>Og'zaki</p>	<p align="center">7</p>
<p>3-bosqich: Mavzu asosida dars bayoni</p>	<p>Mavzuni reja asosida yoritish:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston Respublikasi faxriy unvon, orden va medallari 2. "O'zbekiston iftixori" fahriy unvoni va uning sovrindorlari 	<p>Matn va slaydlar bilan ishlash</p>	<p align="center">50</p>
<p>4-bosqich: Mustahkamlash</p>	<p>O'tilgan mavzu bo'yicha tinglovchilarni bilimini sinash va mustahkamlash</p>	<p>Faol va interfaol, og'zaki savol-javob</p>	<p align="center">10</p>

5-bosqich: Dars yakuni	Xulosa (tinglovchining fikr-mulohazalari, savol javob va takliflar) qilinadi	Og'zaki, izlanish, Rag'batlan- tirish	5
6-bosqich: Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar	Mavzuga oid amaliy ishlarni ko'rib chiqib kichik guruhlarda muhokama qilinadi va zarur adabiyotlar tavsiya qilinadi	Nazorat uchun savol-javob	5

Mavzuni bayoni:

Har bir xalqning, har bir mamlakatning o'z qahramonlari bo'ladi. Ularning Vatan taraqqiyoti yo'lida, iqtisodiyot va madaniyatni yuksaltirish sohasida va el farovonligi uchun qilgan xizmatlari ardoqlanadi, ulug'lanadi, mukofotlanadi. Mustaqil O'zbekistonimizda ham ana shunday fidoyilari munosib taqdirlanadi. Shu maqsadda istiqlol yillarida talay faxriy unvon, orden va medallar ta'sis etilgan. «**O'zbekiston Qahramoni**» unvoni va «**Oltin yulduz**» medali respublikamizning eng yuksak mukofotidir. Bu unvon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 5-maydagi Farmoni bilan ta'sis etilgan va O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan bo'lib, davlat hamda xalq oldida qahramonona jasorat ko'rsatish bilan bog'liq xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladi. «O'zbekiston Qahramoni» unvoni va «Oltin yulduz» medaliga birinchi bo'lib «Suveren va mustaqil O'zbekistonni barpo etish, xalqparvar demokratik huquqiy davlat yaratish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni ta'minlash ishiga qo'shgan ulkan hissasi hamda bu borada matonat va jasorat ko'rsatganligi uchun» O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov sazovor bo'ldi (1994-yil 5-may). «**Mustaqillik**» ordeni (1994 yil 5 mayda ta'sis etilgan) – mustaqil huquqiy davlat barpo etish va uni mustahkamlashga, respublikada tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashga qo'shilgan ulkan hissalar uchun; «**Amir Temur**» ordeni (1996-yil 26-aprelda ta'sis etilgan) – davlatchilikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlar, me'morchilikni, ilm-fan, adabiyot va san'atni, harbiy mahoratni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissalar uchun; «**Buyuk xizmatlari uchun**» ordeni (1996-yil 29-avgustda ta'sis qilingan) – fan va texnikani, iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirishdagi katta xizmatlar,

davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish va O‘zbekistonning xalqaro obro‘cini yuksaltirishga qaratilgan ichki va tashqi siyosatni amalga oshirish ishiga qo‘shgan sezilarli hissalar uchun; **«El-yurt hurmati» ordeni** (1998-yil 28-avgustda ta‘sis etilgan) – mamlakat mustaqilligini, iqtisodiy qudratini mustahkamlashga, milliy ma‘naviyatni, madaniyatni yuksaltirishga katta hissa qo‘shganlik, o‘z mehnati, ilmiy, jamoat ishi, mehnatsevarligi va vatanparvarligi bilan jamoatchilik izzat-hurmatiga sazovor bo‘lganlik uchun; **I va II darajali «Sog‘lom avlod uchun» ordeni** (1993-yil 7-mayda ta‘sis etilgan) – onalik va bolalikni muhofaza qilishdagi, sog‘lom avlodni kamol toptirish uchun eng yaxshi moddiy sharoit va axloqiy muhitni ta‘minlashdagi alohida xizmatlar uchun; **«Mehnat shuhrati» ordeni** (1995-yil 6-mayda ta‘sis qilingan) – iqtisodiyot va madaniyat yuksalishiga, xalq farovonligi oshishiga, tinchlik va barqarorlik saqlanishiga xizmat qiladigan ulkan ishlar uchun; **«Jaloliddin Manguberdi» ordeni** (2000-yil 29-avgustda ta‘sis etilgan) – Vatan sarhadlarini, ona yurtimiz tuprog‘ini, mamlakatimiz mustaqilligini himoya qilishdagi yuksak xizmatlari uchun; **I va II darajali «Shon-sharaf» ordeni** (1995-yil 6-mayda ta‘sis etilgan) – Vatanni himoya qilishda ko‘rsatgan fidoyilik va mardlik uchun, O‘zbekistonda mudofaa qudratini va milliy xavfsizlikni mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligini oshirish va huquq-tartibotni ta‘minlash ishidagi katta xizmatlar uchun; **«Do‘stlik» ordeni** (1995-yil 5-mayda ta‘sis etilgan) – O‘zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning vakillari o‘rtasida do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, O‘zbekiston xalqining boshqa mamlakatlar xalqlari bilan do‘stlik va har taraflama hamkorligini rivojlantirishdagi xizmatlar uchun beriladi.

Shuningdek, **«Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni**, **«Shuhrat»**, **«Jasorat»** va **«Sodiq xizmatlari uchun» medallari** hamda turli kasb va soha kishilari uchun alohida faxriy unvonlar ta‘sis etilgan. Jahon chempionatlarida, Olimpiya o‘yinlarida va shularga teng jahon sport anjumanlarida g‘oliblik – chempionlik unvoniga erishgan hamda o‘z yutuqlari bilan Vatan obro‘cini, shonu shuhratini ulug‘lashga ko‘maklashgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga **«O‘zbekiston iftixori» faxriy unvoni** beriladi (1998-yil 28-avgustda ta‘sis etilgan). Orden, medal va faxriy unvonlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan beriladi.



"O'zbekiston iftixori" fahriy unvoni 1998 yil 28 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan ta'sis etilgan. Bu unvon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan Jahon chempionati, Olimpiya o'yinlari va boshqa sport o'yinlarida chempion unvonini olgan va o'zini yutuqlari bilan Vatan shon-shuhratini yuqori ko'targan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladi. Bu unvonga sazovor bo'lganlar shaxmatchi Rustam Qosimjonov, boksyor Artur Grigoryan, Ruslan Chagaev, Muhammadqodir Abdullayev, dyuzdo va o'zbek kurashi ustasi Kamol Murodov, fristayl bo'yicha jahon chempioni Lina

Cheryazova, O'zbekistonda futbolni ommalashishiga va rivojlanishiga hissa qo'shgan, 1994 yil Osiyo o'yinlari g'olibi Birodar Abdurayimov, 2010 yil Osiyoda yilning eng zo'r xakami deb topilgan Ravshan Ermatov va boshqalar. Shu yilning 4 - 14 oktabr kunlari Kaliningrad shahrida jismoniy imkoniyati cheklanganlar o'rtasida o'tkazilgan X jahon chempionatida oltin medallarga sazovor bo'lgan O'zbekiston terma jamoasi a'zolari poytaxt xalqaro aeroportida tantanali kutib olindi.

2012 yil 14 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra, yurtimizning sport sohasidagi shon-shuhratini yuksaltirish ishiga qo'shgan hissasi, Olimpiada o'yinlarida yuksak natijalarga erishgani uchun dzyudo bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, ikki karra jahon chempioni, Pekin va London olimpiadalari bronza medali sovrindori **Rishod Sobirov**, erkin kurash bo'yicha mamlakatimiz terma jamoasi a'zosi, yozgi Olimpiya o'yinlarining kumush va bronza medallari sovrindori **Soslan Tigievlar «O'zbekiston iftixori»**, boks bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, ikki karra jahon chempioni, London olimpiadasi bronza medali sohibi **Abbos Atoev esa «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi»** faxriy unvonlari bilan taqdirlandilar. Shuningdek, erkin kurash bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, yozgi Olimpiya o'yinlari uch karra chempioni **Artur Taymazov «El-yurt hurmati» ordeni** bilan mukofotlandi.

Mavzurxo‘ja Umarxo‘jayev, «Do‘stlik» ordeni sohibi, O‘zbekiston terma jamoasi bosh murabbiyi Nuriddin Tursunov, «Jasorat» medali sohibi, terma jamoa a‘zosi: Futbolchilar va murabbiylar moddiy jihatdan ham rag‘batlantirildi.

Prezidentimiz Islom Karimov “Sportchi maydonga o‘z yurti, o‘z xalqi nomidan tushadi. Uning g‘alabasi sharafiga davlat madhiyasi yangraydi, mamlakat bayrog‘i ko‘tariladi. Har bir mamlakat, millat o‘z chempionlari bilan faxrlanadi, g‘ururlanadi. Shuning uchun ham ular Vatanning iftixorlari hisoblanishadi”, deya bejiz ta’kidlamagan. Zero, sport mamlakatimizda nafaqat sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, balki millat va xalq manfaatiga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi. Shu o‘rinda uchta dalil keltirmoqchimiz: birinchidan, Istiqlolga erishganimizdan boshlab mamlakatimizda Prezidentimiz rahnamoligida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratib kelinmoqda. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq O‘zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ziyoq fikrimiz tasdig‘idir. O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi tashkil etilgan sana - 1992 yil 21 yanvar’ ham mamlakatimiz tarixining oltin zarvaraqlaridan joy oldi. Qolaversa, O‘zbekiston Mustaqil Hamdo‘stlik Davlatlari (MDH) ichida birinchilardan bo‘lib, Xalqaro Olimpiya qo‘mitasiga a‘zo bo‘ldi, Osiyo Olimpiya harakati hamda mintaqaviy tashkilot sanalmish Osiyo Olimpiya Kengashining teng huquqli a‘zosiga aylandi.

Yana bir huquqiy asos, ya’ni mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni kompleks rivojlantirish maqsadida “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 1999 yilda 271 - sonli qarori qabul qilindi. Unga binoan, «O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish Davlat dasturi konsepsiyasi» tasdiqlanib, uning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

- Toshkent shahrida boksni, milliy sport turlarini rivojlantirish, Shahrisabzda esa kurashni rivojlantirish Respublika markazlari tashkil etildi;
- aholining jismoniy tayyorgarlik va salomatlik darajasini belgilab beradigan «Alpomish» va «Barchinoy» testlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Hozirga kelib, mamlakatda faoliyat yuritayotgan 536 ta bolalar va o‘smirlar sport maktablari, 13 ta olimpiya zahiralari kollejlari hamda 8 ta Respublika oliy sport mahorati maktabida yuqori malakali, iste’dodli sportchilar tayyorlanmoqda. Malakali sportchilarni

tayyorlash bilan birga, ommaviy sportni rivojlantirishda sport jamoalari, federaciya va boshlang'ich sport jamoalari tomonidan sezilarli ishlar amalga oshirildi. 1991 yilda yurtimizda faoliyat ko'rsatuvchi 52 sport turi mavjud bo'lsa, 2011 yilga kelib ularning soni 75 taga yetdi. Bugungi kunda amalda bo'lgan 75 ta sport turidan 68 dan ziyodi yurtimizning barcha hududlarida keng rivoj topib, ularni ommalashtirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Buning natijasida sport bilan muntazam shug'ullanuvchilar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ikkinchidan, mamlakatda yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlash, sog'lom turmush tarziga intilish va sportga nisbatan mehr-muhabbatni rivojlantirish, joylarda bolalar sportining moddiy bazasini yaratish, aholi yashaydigan joylarda zamonaviy bolalar sport komplekslari tarmog'ini barpo etish hamda sport uskunalari va jihozlari bilan ta'minlash ishlarini yanada faollashtirish maqsadida Yurtboshimiz tashabbusi bilan 2002 yilda "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi" tashkil etildi. Shu o'rinda bir qiyosiy misol: mazkur jamg'ama tashkil etilgandan buyon 1400 ta bolalar sporti ob'ektlari qurilib, foydalanishga topshirildi.

Yana bir muhim jihat shundaki, bugungi kunga kelib mamlakatimizning barcha tumanlarida sport maktablari tashkil etilmoqda. Ta'kidlash lozimki, bunday ijobiy holatni MDH davlatlarining hech birida uchratmaysiz. Badiiy gimnastika bilan minglab qizlarimiz muttasil shug'ullanmoqda. Yurtimizda Jahon Kubogi bosqich o'yinlari, Osiyo chempionatlari, nufuzli musobaqalar o'tkazilyapti. Ulyana Trofimova Olimpiada yo'llanmasini olgan bo'lsa, o'tgan 2011 yilda ham sportchi qizlarimiz badiiy gimnastikadan 11 ta oltin, 27 ta kumush hamda 19 ta bronza (jami 57 ta medal), sport gimnastikasidan esa 22 ta oltin, 10 ta kumush va 16 ta bronza (jami 48 ta medal), shuningdek, trompolin va akrobatika sport turlaridan 15 ta medallar jamg'arishdi. Uchinchidan, dunyo mamlakatlarida o'quvchi va talaba yoshlarning turli sport musobaqalari mavjud, ammo ularni jismoniy tarbiya va sportga jalb etishning uch bosqichli uzluksiz tizimi hech bir davlatda yo'q. Bundan bir necha yil muqaddam qabul qilingan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida ta'lim tizimining uzluksizlik talablariga uyg'unlashgan uch bosqichli ommaviy sport harakati - "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" sport o'yinlari tashkil etildi va u bugun butun dunyo jamoatchiligi tomonidan keng e'tirof etilmoqda. Bunday harakatga ilk bor O'zbekistonda Yurtboshimiz Islom Karimov tomonidan asos solindi va u izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Universiada harakatining ana shunday ezgu an'analarini boshlab bergan Abdulla Tangriev, Rustam Saidov, Abbas

Atoev, Rishod Sobirov, Oqgul Omonmurodova, Svetlana Radzivil, Sevara Qodirova, Saida Iskandarova, Vadim Menkov, Dilshod Mansurov, Elmurod Xoliqov kabi iste'dodli sportchilarimiz bugungi kunda O'zbekiston shuhratini butun dunyoga taratishga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Shu o'rinda solishtirish uchun misollar keltiraylik: muzaffar sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda 2008 yilda 103 ta medalga (51 ta oltin) loyiq topilgan bo'lsa, 2011 yilda 182 ta medal (60 ta oltin) jamg'arib, yurtimiz bayrog'ini sarbaland etishdi. Mohir sportchimiz Rishod Sobirov Parij shahrida dzyudo bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida oltin medalga – ikkinchi bor jahon chempionligiga erishganligi, Abdulla Tangrievning bu sport turi bo'yicha mutloq vazn toifasida jahon chempioni bo'lganligi bugun o'zbek sporti naqadar rivojlanib, yuksalib borayotganidan dalolatdir. Shu o'rinda Yurtboshimiz tashabbusi bilan 1998 yil 28 avgustda tashkil etilgan “O'zbekiston iftixori” faxriy unvoni sportchilarimizni jahon chempionatlarida, qit'a birinchiliklarida muvaffaqiyat qozonishiga xizmat qilishini ta'kidlash joizdir. Mazkur faxriy unvon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan jahon chempionatlarida, Olimpiya o'yinlarida va boshqa nufuzli xalqaro musobaqalarda Vatanimiz shon-shuhratini ulug'lab, erishgan ulkan muvaffaqiyatlari uchun muzaffar sportchilarimizga berilishini ta'kidlab o'tish kerak. Darhaqiqat, jismoniy tarbiya va sportni yoshlar o'rtasida targ'ib qilish borasida mamlakatimizda bir qator xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish, uning mohiyatini mamlakat aholisiga keng yetkazish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 noyabrda №484-sonli "Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unga binoan, Markaziy Osiyo davlatlarida birinchi bo'lib O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi qoshida maxsus "Sport" kanali tashkil etildi.

Mazkur qarorning 10-bandiga asosan O'zbekiston Milliy universiteti hamda Jahon tillari universiteti, shuningdek, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutining malaka oshirish fakul'teti qoshida sport jurnalistlarini maqsadli, qisqa muddatda ixtisosga yo'naltirib tayyorlash, qayta tayyorlash o'quv kurslari tashkil etilib, jahon talablari darajasida amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Davlatimiz rahbarining 2011 yil 19 yanvarda qabul qilingan "2011-2013 yillarda respublikada futbolning moddiy-texnika bazasini yanada

mustahkamlash va uni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori sport jurnalistikasi tarixida yangi sahifa ochdi.

Milliy sport turlarimizdan biri bo'lgan O'zbek kurashini olaylik. Hozir yana O'zbek jang san'ati, belbog'li kurash, bel olish kurashi, Turon kurashlari yoshlarimiz o'rtasida tobora ommalashib bormoqda. Bu yerda targ'ibot masalasida bir muhim jihatga e'tibor qaratish lozim. Ya'ni, eng avvalo, O'zbek kurashni oladigan bo'lsak, unga milliy manfaatlarimiz nuqtai-nazaridan kelib chiqib, targ'ib qilish, bu sport turimiz orqali biz kimlarning avlodi bo'lganligimiz, biz hech kimdan kam emasmiz, kam bo'lmaymiz ham degan ulkan milliy g'urur targ'ibot ishlarimizning negizini tashkil etishi kerak. Bu borada Sharq falsafasi, bizga turmush tarzi yaqin bo'lgan Yaponiya, Janubiy Koreya davlatlari tajribasi ham qo'l kelishi mumkin. Ma'lumki, ushbu davlatlarda milliy sport turlarini targ'ib qilishga birinchi navbatda milliy g'urur, milliy manfaat nuqtai nazaridan qaralsa, ikkinchidan, shu yurtlar madaniyati, ma'rifati, falsafasini dunyo miqyosida keng yoyish, uchinchidan, bu orqali iqtisodiy manfaat ko'rish (bu milliy sport kiyimlari, atributikalarini sotish) masalasi muhim o'rin tutadi. Shu yil 10 fevralda Oqsaroyda bo'lib o'tgan Bolalar sporti jamg'armasi Homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishida Yurtboshimiz bolalarni 3-5 yoshdan sportga jalb etish katta ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi. Bu bejiz emas. Chunki, ayni shu davrda har bir bolaning xarakteri shakllana boshlaydi, hayotga teran ko'z bilan qarashni boshlaydi. Sportga mehr qo'ygan bola bir umr sportga oshno bo'lib qoladi. Sport bolaning nafafat salomatligini mustahkamlaydi, balki zararli illatlardan ularni himoyalaydi. O'tgan yillar mobaynida "Sog'lom ona-sog'lom bola" g'oyasini o'zida mujassam etgan dastur asosida keng ko'lamli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga izchil joriy etilmoqda. Albatta, bu boradagi xayrli ishlarimiz zamirida bir ezgu maqsad - sog'lom avlodni tarbiyalash maqsadi mujassam. Zero, sog'lom ona - sog'lom bola, sog'lom bola - sog'lom kelajak, demakdir. Farzandlarimizning har tomonlama sog'lom bo'lib ulg'ayishida joylarda tashkil etilayotgan turli sport musobaqalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tahlillar va erishilgan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlarimiz orasida futbol, mini-futbol, tennis, stol tenisi, shaxmat, badiiy gimnastika, suzish, baydarka va kanoeda eshkak eshish, akademik eshkak eshish, kurash, belbog'li kurash, yunon-rum kurashi, boks, yengil atletika singari sport turlariga qiziqish tobora ortib bormoqda. 2003 yilda bolalar sekciya va klublarda sportning 8 turi bilan

shug'ullangan bo'lsa, endilikda zamonaviy sport majmualarining jihozlanish darajasi sportning 30 dan ziyod turi bilan muntazam shug'ullanish imkonini bermoqda.

Sportga e'tibor davlatimiz tomonidan kundan-kunga ortib borayapti. Yurtimizdan yetishib chiqayotgan ko'plab yoshlarning jahon shohsupalarini zabt etayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Ayniqsa, kurash turiga qiziquvchi yoshlar safi tobora kengaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 sentyabrdagi "Sport kurashlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktabini tashkil etish to'g'risida" 1822-sonli qarori yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash borasidagi navbatdagi harakatlardan biri bo'ldi.

MILLAT G'URURI – MAMLAKAT IFTIXORLARI

Artur Taymazov

1979-yil 20-iyulda tug'ilgan. Erkin kurash bo'yicha XXVII Olimpiya o'yinlarining kumush medali sohibi, Osiyo chempioni, xalqaro turnirlar g'olibi.

Afinada o'tkazilgan XXVIII hamda Pekinda o'tkazilgan XXIX yozgi Olimpiada o'yinlari g'olibi. 2012-yil Londonda o'tkazilgan XXX olimpiada musobaqalari g'olibi, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi.

Rustam Qosimjonov

1979-yilning 5-dekabrda Toshkentda tug'ilgan. Shahmat bo'yicha Osiyo chempioni, jahon chempionati mintaqaviy musobaqasi g'olibi, Butunjahon shaxmat olimpiadasida shahsiy hisobda bronza medaliga sazovor bo'lgan. Xalqaro grossmeyster. "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni hamda "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

O'tkirbek Haydarov

1974-yilning 25-yanvarida Andijonda tug'ilgan. Boks bo'yicha jahon chempioni. "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi", "O'zbekiston iftixori" faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.

Akobir Qurbonov

1975-yilning 29-iyulida Buxoroda tug'ilgan. Sambo bo'yicha to'rt karra Osiyo chempioni, Jahon universiadasi g'olibi, jahon kubogi sohibi, jahon chempioni. "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni hamda "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Kamol Murodov

1979-yilning 29-noyabrda Buxoro viloyatida tug‘ilgan. Dyuzdo bo‘yicha Osiyo o‘yinlari bronza medali sovrindori. Milliy kurash bo‘yicha birinchi jahon chempioni. Xalqaro miqyosdagi sport ustasi. “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.

Bahrom Avazov

1970-yilning 3-yanvarida Qashqadaryo viloyatida tug‘ilgan. Milliy kurash bo‘yicha Amir Temur va Paxlavon Mahmud xotirasiga bag‘ishlangan xalqaro musobaqalarning mutlaq g‘olibi, jahon chempioni. “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.

Timur To‘lyakov

1975-yilning 11-fevralida tug‘ilgan. Andijonda voyaga yetgan. Boks bo‘yicha qit‘a chempionati va Osiyo o‘yinlari g‘olibi. “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.

Shuhrat Xo‘jayev

1969-yilning 11-iyulida Buxoroda tug‘ilgan Sambo bo‘yicha jahon va 4 karra Osiyo chempioni, ikki bor jahon va qit‘a kubogi sohibi milliy kurash bo‘yicha jahon chempionati bronza medali sovrindori. “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.

Muhammadqodir Abdullayev

1973-yilning 15-noyabrda Andijon viloyatida tug‘ilgan. Boks bo‘yicha Osiyo va jahon chempioni. Osiyo va Olimpia o‘yinlari g‘olibi. “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi”, “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvonlari, “El yurt hurmati” ordeni hamda “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan. 1999- va 2000-yillarda mamlakatimizda “Yilning eng yaxshi sportchisi” deb topilgan.

Mahtumquli Mahmudov

1969-yilning 29-iyulida Surxondaryo viloyatida tug‘ilgan. Kurash bo‘yicha qator xalqaro turnirlar g‘olibi. Jahon chempioni. “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.

Lazizbek Zokirov

1976-yilning 3-sentabrda Jizzah viloyatida tug‘ilgan. Boks bo‘yicha to‘rt karra mamlakat chempioni, Osiyo chempionatining kumush va bronza medallari sovrindori,

Osiyo o'yinlarining bronza medali sohibi, jahon kubogi g'olibi. Xalqaro miqyosdagi sport ustasi. "O'zbekiston iftixori" faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.

Rishod Sobirov

1986-yilning 11-sentabrda Buxoro viloyatining Jondor tumanida tug'ilgan. Ikki karra jahon chempioni (dyuzdo bo'yicha terma jamoa a'zosi), ikki karra olimpiada o'yinlari bronza medali sohibi. "O'zbekiston iftixori", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvonlariga ega.

Mavzu yuzasidan savollar

1. O'zbekiston Respublikasida tasdiqlangan unvonlar va ordenlar haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni qachon tasdiqlangan?
3. "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni sohiblari haqida ma'lumot bering?
4. O'zbekistonda sport sohasiga qay darajada e'tibor qaratilmoqda?

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. "O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura". – T.: "O'zbekiston", 1-jild. 1996 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. -326 b.
3. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. – T.: "O'zbekiston", 14-jild. 2006 y.
4. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va halqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.: "O'zbekiston", 15-jild. 2007 y.
5. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – T.: "Ma'naviyat", 2008 y.
6. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. – T.: "O'zbekiston", 17-jild. 2009 y.
7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: "O'zbekiston", 2010 y.

8. Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi”. –T.: “O‘zbekiston”, 2010 yil
9. Karimov I.A. Ming yillik rivojlanish maqsadlarining ma’ruzasi. –T. 2010 y.
10. Karimov I.A. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. –T., “O‘zbekiston”, 2011 y.
11. Karimov I.A. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir” ma’ruzasi. “Xalq so‘zi”, 2013 yil 7-dekabr
12. Karimov I.A. Vazirlar Mahkamasi majlisidagi 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ma’ruzasi
13. O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to‘g‘risida milliy ma’ruza 2002-2004 yillar. – T.: 2005. – 108 b.
14. “Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. – T: “O‘zbekiston”, 2010 y.
15. Barkamol avlod – kelajagimiz tayanchi. – T: “Ma’naviyat”, 2010 y.
16. Turdiqulov E.O. Orol mintaqasidagi ekologik holatni sog‘lomlashtirishning asosiy holatlari
17. Muradov Sh.O. Atrof muxit monitoringi va ekologiyaning dolzarb masalalari. – Qarshi: Nasaf, 2010. – 108 b.

Internet saytlari

1. Gov.uz
2. Ziyonet.uz
3. Eduportal.uz
4. Uza.uz
5. Lex.uz
6. fikir.uz

